

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

**XAYDAROV BEKZOD SHUKURALIYEVICH**

**NAYZA ULOQTIRUVCHILARNING MASHG‘ULOT JARAYONINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy**  
**tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical science**

**Xaydarov Bekzod Shukuraliyevich**

Nayza uloqtiruvchilarning mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish  
samaradorligi ..... 3

**Хайдаров Бекзод Шукуралиевич**

Эффективность совершенствования тренировочного процесса метателей  
копья..... 31

**Khaydarov Bekzod Shukuralievich**

Effectiveness of improving the training process of javelin throwers..... 61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

**XAYDAROV BEKZOD SHUKURALIYEVICH**

**NAYZA ULOQTIRUVCHILARNING MASHG‘ULOT JARAYONINI  
TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Ped2035 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.jtsu.uz](http://www.jtsu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Olimov Muxsinbek Sotivoldiyevich**

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy taqrizchilar:**

**Dadabayev Odiljon Jalolidinovich**

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich**

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: [www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz), e-mail: [uzdjtsu@uzdjtsu.uz](mailto:uzdjtsu@uzdjtsu.uz). O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Madaniyat saroyi, 2-qavat, Kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin ( № \_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: [www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz), e-mail: [uzdjtsu@uzdjtsu.uz](mailto:uzdjtsu@uzdjtsu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**R.M.Matkarimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, pedagogika fanlari doktori  
(DSc), professor

**Sh.Sh.Gaziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

**J.M.Ishtayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida yengil atletika sport turining nufuzi oshayotgani hamda zamonaviy sportda ayni sport o'z o'rniga ega ekanligi, shuningdek, sohada katta o'zgarishlar bo'layotgani, sport natijalarini doimiy yaxshilanib borayotgani, sport hamjamiyatida raqobatni kuchayishi esa, ko'rsatilayotgan natijalarni jadallik bilan o'sib borayotgani sportchilar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu borada yengil atletikaning nayza uloqtirish turi bo'yicha malakali sportchlarni tayyorlash, ularni musobaqa faoliyatiga moslashtirish ko'p yillik jarayonda amalga oshirilib, sport mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda bosqichma-bosqich rejalashtirib borish imkonini beradi. Shu boisdan nayza uloqtirish bo'yicha mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish va mashg'ulotlarni olib borish, ularning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi, texnik tayyorgarligi hamda mashg'ulotlarda qo'llaniladigan yuklamalar hajmi, bajarilish mazmuni, musobaqa oldi va musobaqalarga tayyorgarlik formasini ushlab turish kabi omillarning hal etilishi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda nayza uloqtirish turiga ixtisoslashgan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimi va mashg'ulot jarayonini rejalashtirish, mashg'ulotlarni o'tkazishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari sohaning yetuk olimlari tomonidan o'rganib kelinmoqda. O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, nayza uloqtiruvchilarning mashg'ulotlarini rejalashtirish, sportchilarni jismoniy tayyorgarligiga mos ravishda mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan vosita va usullarni tanlash, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik yuklamalarining nisbatlari, takrorlanishlar soni mashg'ulotlarni olib borish uslublariga bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilishi, o'z navbatida, nayza uloqtirish bo'yicha xalqaro va nufuzli musobaqalarga tayyorlash holatini ko'rsatib berib, rejalashtirilgan sport natijasini qayt etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida ham juda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yuqori malakali sportchilar zaxirasini tayyorlash, mashg'ulot jarayonlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida boshqarish, mashg'ulot jarayonini takomillashtirish natijasida sportchilarni dunyo miqyosida Olimpiya o'yinlari, Jahon chempionati, Osiyo o'yinlari va boshqa turli nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarga erishayotgani, dunyoda mamlakatimizning obro'- e'tibori va sportdagi nufuzi oshayotganini ko'rsatmoqda. "Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish"<sup>1</sup> kerakki, jahon sport arenalarida raqobatbardosh, istiqbolli, yurtimiz sha'nini munosib himoya qiladigan sportchilarni tayyorlash, ko'p yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazish va tashkillashtirish asosiy vazifalardan sanaladi. Nayza uloqtiruvchilarning mashg'ulot jarayonini takomillashtirishda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmoni.

sportchining individual xususiyatini inobatga olib, qo'llaniladigan vosita-usullarni mashg'ulot oldiga qo'yilgan maqsad bilan bog'liqligi yuqori malakali sportchilarni va zaxira sportchilarni tayyorlashda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq mamlakatimiz nayza uloqtiruvchilari milliy terma jamoa a'zolarining sport natijalari jahon arenalaridagi sport natijalari bilan qiyosiy tahlil etganimizda sezilarli darajada ortda qolayotganimizni ko'rishimiz mumkin. Bu esa nayza uloqtiruvchilarni tayyorlash tizimining ilmiy jihatdan asoslangan variantini ishlab chiqish tanlangan dissertatsiya mavzusini dolzarb ekanligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-sonli "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281-sonli "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qarori hamda ayni sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** O'rganilayotgan mavzu yuzasidan yengil atletikaning nayza uloqtirish turi bo'yicha yuqori malakali sportchilar va zaxira sportchilarini tayyorlash yosh avlodni nafaqat jismoniy balki, axloqiy jihatdan tarbiyalashda mashg'ulot jarayonini takomillashtirish, yillik mashg'ulot jarayonlari mazmuniga hamda bajarilish usullariga o'zgartirish kiritish, uning musobaqa faoliyatini ilmiy jihatdan asoslangan variantini ishlab chiqish orqali yurtimizni har tomonlama iqtisodiy rivojlanishiga samara beradigan masalalariga K.T.Shakirjanova, H.T.Rafiyev, R.Q.Qudratovlar e'tibor qaratishgan. Bu borada yuqori malakali sportchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni tashkil etish, yillik mashg'ulotlarda yuklamalar hajmi, bajarilish uslublari va samaradorligini oshirish muammosi bo'yicha F.A.Kerimov, R.D.Xalmuxamedov, R.M.Matkarimov, S.S.Tajibayev, M.S.Olimov, N.T.To'xtaboyev, I.R.Soliyev, K.F.Ruzamuxamedov, A.M.Baratov<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> R.S.Salomov. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. T.: 2005. - 261 b.; P.D. Xalmuxamedov. Технология подготовки единоборцев на этапах годового цикла. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. T.: 2009. - 300 с.; R.Q.Qudratov. Yengil atletika. Darslik -T.: 2012. -

kabi mamlakatimiz olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Yengil atletikaning nayza uloqtirish turi Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari, Jahon chempionatlari hamda Butunjahon universiyadasi dasturlaridan o'rin olgan yengil atletikaning asosiy turlaridan biri hamda yurtimiz sportshilari doimiy ravishda medallar uchun kurash olib boradigan turlardan ekanligini inobatga olib ushbu biz tomonimizdan olib borilayotgan tadqiqot sport mashg'ulotlari nazariyasini boyitish uchun xizmat qiladi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari mutaxassislari tomonidan yengil atletikaning nayza uloqtirish turini yanada rivojlantirish, kelgusida yuqori sport natijalariga erishish uchun mashg'ulot yuklamalarini sportchining jismoniy holatidan kelib chiqib rejalashtirish, yillik yuklamalar hajmining bajarilish uslubi, qo'llaniladigan vosita va usullarning sportchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab bajarilishi bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish, nayza uloqtiruvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishda sportchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash muammolarini A.P.Bondarchuk, A.I.Jilkin, V.S.Kuzmin, E.V.Sidorchuk, N.G.Ozolin, V.N.Nikitushkin, N.N.Chesnokov<sup>3</sup> kabi soha olimlarining tadqiqot ishlarida uloqtirish texnikasini o'rgatish, ko'p yillik mashg'ulotlarni tashkil etish borasida qator tadqiqotlar o'tkazilgan.

Xorijiy mutaxassislardan B.P.Boden, L.Y.Giffin, W.E.Garrett, Steven Leigh, D.A.Babbittlar<sup>4</sup> nayza uloqtiruvchi sportchilarni mashg'ulot yuklamalarini taqsimlanishi, uloqtirish texnikasini o'rgatish va uni o'zlashtirishda vosita usullaridan foydalanib ularni qo'llash metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Shuningdek, mazkur olimlar mashg'ulot jarayonini boshqarish, pedagogik nazorat qilish, rejalashtirish bo'yicha qator tadqiqotlar ham o'tkazilib kelgan. Olimlar aynan nayza uloqtiruvchilarning yillik mashg'ulotlar jarayonini rejalashtirish, musobaqalarga tayyorlash tizimi va sportchilar texnikasini ilmiy asoslangan variantini ishlab chiqish

---

342 b.; K.T.Shakirjanova Nayza uloqtirish. O'quv qo'llanma-T.: 2012.-127 b., Tajibayev S.S. O'smir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarligida harakatli o'yinlarni qo'llash metodikasini ilmiy-pedagogik asoslash // pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Ch.: 2018. – 270 b., И.П.Солиев. Қисқа масофага югурувчиларнинг йиллик тайёргарлик машғулотларини режалаштириш PhD диссертацияси. Ч.: 2020. – 146 б.; F.A.Kerimov Sportda ilmiy tadqiqotlar. Darslik. Ch. 2020. -355 b., Н.Т.Рафийев Yengil atletika turlarini o'qitish uslubiyati Darslik - T.: 2021. -299 b., R.M.Маткаримов Юқори малакали оғир атлетикачиларни кўп йиллик тайёрлашнинг илмий-назарий асослари // DSc фан докторлик диссертацияси. Ch.:2023. – 265 б.; Рузамухамедов К.Ф. Юқори малакали баландликка сакровчилар жисмоний тайёргарлигини такомиллаштириш. PhD диссертацияси. Ч.: 2022. – 103 с.; Олимов М.С. Югуриш турларида енгил атлетикачи талабаларни тайёрлашнинг илмий-педагогик асослари // DSc фан докторлик диссертацияси. Ch.:2023. – 265 б.; Тўхтабоев Н.Т. Кўп йиллик тайёргарлик босқичларида баландликка сакровчи қизларнинг ўқув-машғулот жараёнларини бошқариш // DSc фан докторлик диссертацияси. Ch.:2023. – 261 б.; Абдуллаев М. Ж. Таълим тизимида енгил атлетика бўйича тўғарак машғулотларини ташкил қилишнинг илмий – педагогик асослари (умумтаълим мактаблари мисолида). DSc фан докторлик диссертацияси. Ch.:2023. – 244 б.; А.М.Баратов. То'сиқлар оша угурувчи sportchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini takomillashtirish PhD dissertatsiyasi. Ch.: 2023. – 129 b.; D.X.Umarov, M.N.Umarov Sportda saralash va modellashtirish. D. -T.: 2023. -515 b.

<sup>3</sup> А.П. Бондарчук метадиическая пособия Управление тренировочным процессом спортсменов высокого класса М:-2007-197 с.; Н.Г.Озолин, И.В.Воронкин, Ю.Н.Пиримакова учебни пассобия Легкая атлетика 2017. – 761 с.; А.И.Жилкин, В.С.Кузмин Е.В.Сидирчук учебники и пособия вузов Легкая атлетика 2023. -183с.;

<sup>4</sup> Boden, B.P., Griffn, L. Y., & Garrett, W. E. Etiology and Prevention of Noncontact ACL Injury. Phys Sportsmed, 28(4), Berlin, 2000. P.53-60.; Babbitt, D. A summary of the key technical elements in the javelin throw. Paper presented at the XVth ITFCA Congress. Kalifornia, 2001. – P. 87-89.; Steven Leigh.The influence of technique on throwing performance and injury risk in javelin throwers // Doctor of Philosophy dissertation. Chapel Hill, 2012. – P.55-57.

uslubiyatini tadqiq qilgan.

Biroq yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimi, jumladan, nayza uloqtirish turiga ixtisoslashgan sportchilar uchun mashg'ulot ishlanmalari, musobaqaoldi tayyorgarlik sikli, mashg'ulotlar hajmi va shunga o'xshash kichik-kichik detallariga e'tibor qaratilmagan yo'nalishi ilmiy ob'yektimizning deyarli o'rganilmagan jihatlari sifatida oldimizga qo'yilgan muammolarni hal etishda va mashg'ulot jarayonlarini zamonaviy jihatdan rejalashtirishni taqozo etmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq V/I.29/2 "O'zbekiston terma jamoalarida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nayza uloqtiruvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini rivojlantiruvchi metodikani ishlab chiqish asosida mashg'ulotlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

nayza uloqtiruvchilarning ko'p yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini (mikrosikl, mezosikl) rejalashtirish va yuklamalarning yangi nisbatlarini ishlab chiqish;

nayza uloqtiruvchilarni snaryadni uloqtirishda chalishtirma qadam ritmini aniqlash va uni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish;

nayza uloqtiruvchilar mashg'ulotlarida maxsus texnik harakat tayyorgarligini (oxirgi kuch berish, nayzani chiqarish burchagi) o'rganish;

nayza uloqtiruvchilarning individual uloqtirish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks texnik mashqlari modulini ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik tajribada ilmiy asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida respublika oliy sport mahorati maktabining sport takomillashuv guruhi nayza uloqtiruvchilarining mashg'ulot jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** nayza uloqtirish turiga ixtisoslashgan sportchilarning mashg'ulot jarayonida jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirish mashg'ulotlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, antropometriya, instrumental usul, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik – statistik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nayza uloqtiruvchilarning ko'p yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini (mikrosikl, mezosikl) rejalashtirish asosida yozgi musobaqa oldi tayyorgarlik haftasida qo'llaniladigan mashg'ulot uslubiyatini (portlovchi kuchni rivojlantirishda shtangani ko'taradigan vazniga nisbatan nisbiy og'irligi bilan belgilangan vaqt davomida yuklamalar hajmini o'zgartirish) ishlab chiqish hisobiga uloqtiruvchilarni mashg'ulot jarayoni takomillashtilgan;

nayza uloqtiruvchilarning uloqtirishda chalishtirma qadamlar ritmini bir me'yorga keltirish uchun maxsus mashqlar majmuasiga kichik g'ovlarda yon tomonlama yugurish, shtanga grifini yelkaga, yuqoriga ko'targan holatda yugurish elementlarini singdirish hisobiga yugurib kelib nayzaga oxirgi kuch berish texnikasini bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

nayza uloqtiruvchilar maxsus texnik harakat tayyorgarligini (oxirgi kuch berish, snaryadni uchib chiqish burchagini optimallashtirish) uchun ishlab chiqilgan “Javelin Bek Imitation-800” trenajor uskunasi foydalanish hisobiga nayzaning uchib chiqish burchagini ta'minlovchi texnik harakatlar takomillashtirilgan;

nayza uloqtiruvchilarning yugurib kelish va oxirgi kuch berish fazalar bo'g'liqligini uyg'unlashtirish asosida individual uloqtirish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks mashg'ulot modulini intensiv mashg'ulotlar jarayonida qo'llash hisobiga musobaqalarda yuqori sport natijalarga erishilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nayza uloqtiruvchi sportchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini mikro, mezo va makrotsikllardagi yuklamalarini tuzilmasi ishlab chiqilgan;

nayza uloqtiruvchi sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik holatini inobatga olgan holda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish va optimal tuzilmasi amaliyotga tatbiq etilib, uning samaradorligi aniqlangan;

nayza uloqtiruvchi sportchilar uchun yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarining tayyorgarlik bosqich va davrlarida qo'llaniladigan yuklamalar nisbatlari ishlab chiqilgan hamda ularning samaradorligi amaliyotda isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Pedagogik tadqiqot natijalarining ishonchliligini bilish nazariyasi va uslubiyati mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarning, shuningdek jismoniy tarbiya va sport nazariyasi amaliyoti sohasida xizmat ko'rsatgan yetakchi olimlar va mutaxassislarining ilmiy qarashlari bilan asoslangan. Bir birini o'zaro to'ldirgan tadqiqot vazifalariga mos keladigan tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tadqiqot natijalarining sifat jihatidan ta'minlanganligi, tadqiqot ishlari va nazorat sinovlarini oshkoraligi hamda olingan tadqiqot natijalarini hisoblashda matematik statistik usullar qo'llanilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, olingan natijalarning asosiy holatlari nayza uloqtiruvchilarning texnik tayyorgarligi metodikasini yangi ilmiy ma'lumotlar va amaliy tavsiyalar, majmuaviy tanlangan mashqlar hamda texnologik usullarni saralab olish, qo'llashni tabaqalashtirish loyihalarini mantiqiy sxemasini amalga oshirish yo'li orqali kengaytirish, o'tkazilgan pedagogik tajribalarda olingan natijalar asosida nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini takomillashtirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan hamda ularni qo'llash samaradorligi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, nayza uloqtiruvchilarni mashg'ulot jarayonini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy-uslubiy adabiyotlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ularda berilgan ma'lumotlar bugungi kunda ma'lum ma'noda eskirgani, jahon arenalarida sport natijalarining kun sayin o'sib borishi nayza uloqtiruvchilarning mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda maqsadli rejalashtirish dasturini ishlab chiqishni taqozo etmoqda hamda sportchilar tayyorlash tizimida nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini takomillashtirishga qaratilgan tizimli dastur ishlab chiqish orqali sportchilarni musobaqalarga tayyorlash samaradorligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sport takomillashuv guruhi nayza uloqtiruvchilarining yillik mashg'ulotlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

- nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik bosqich va davrlaridagi mashg'ulot yuklamalari hajmi o'quv dasturidagi komponentlarini hisobga olgan holda yillik tayyorgarlik mashg'ulotlariga mos ravishda rejalashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarning mazmuni asosida "Sport pedagogik mahoratini oshirish (Yengil atletika)" nomli o'quv qo'llanmaning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektorining 2022-yil 28-dekabrda 428-I/Ch sonli ruxsatnomasi). Natijada sportchilarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari bo'yicha bo'y uzunligi 3,7 %, tana vaznii 4,6 %, yelka kengligi 1,9 % ga o'sishiga erishilgan;

- yengil atletika bilan shug'ullanuvchi o'quvchi yoshlarda yillik tayyorgarlikning barcha sikllarida yuklamalar me'yoriy hajmlari o'quvchilarning funksional tayyorgarligini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Nayza uloqtiruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarining mikro, mezo va makrotsikllarida qo'llaniladigan vositalarni shiddat zonalari bo'yicha takrorlanishlar soni, dam olish oraliq'i sportchilarning individual xususiyatlarini mashg'ulot yuklamalariga mosligi bo'yicha olib borilgan (O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 18-sentyabrdagi 03-01/04/20/9627-sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijasida nayza uloqtiruvchilarning musobaqa natijalari 9,6 % ga yaxshilangan.

- nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik bosqich va davrlaridagi mashg'ulot yuklamalari hajmi o'quv dasturidagi komponentlarini hisobga olgan holda yillik tayyorgarlik mashg'ulotlariga mos ravishda rejalashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarning mazmuni asosida "Sport pedagogik mahoratini oshirish (Yengil atletika)" nomli o'quv qo'llanmaning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektorining 2022-yil 28-dekabrda 428-I/Ch sonli ruxsatnomasi). Natijada nayza uloqtiruvchilarni sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi 14,3 % ga, oshirilgan;

- nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida funksional holatini inobatga olgan holda rejalashtirishning optimallashtirilgan tuzilmasi amaliyotga tatbiq etilib, uning samaradorligi aniqlangan. Asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish maqsadida yillik mashg'ulot vositalari jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan. (O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023 yil 18 sentyabrdagi 03-01/04/20/9627-sonli ma'lumotnomasi) Natijada mashg'ulotlarda nayza uloqtiruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi 12,9% ga oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot materiallari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami, 15 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda), ilmiy-amaliy anjuman to'plamlarida 5 ta maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, 8 ta rasm, 14 ta jadval, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 134 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi tadqiqot bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob‘yekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprotasiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Nayza uloqtiruvchilarning mashg‘ulotlarini takomillash oid adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini tuzulmasi, nayza uloqtiruvchilarning mashg‘ulotlari yuklamalarini taqsimlanishi, nayza uloqtiruvchilarning kuch tayyorgarligi rivojlantirish xususiyatlari, nayza uloqtiruvchilarning kuch va tezkorligini rivojlantirishning fiziologik xususiyatlari sportchilarning snaryadni uloqtirish ko‘nikmalarini shakllantirish xususiyatlari bo‘yicha zamonaviy o‘quv-uslubiy adabiyotlar, yangi metodikalarni amaliyotga joriy qilinishi yuzasidan bir qator fikr va mulohazalar o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Bir qator olimlar [K.T.Shakirjanova, H.T.Rafiyev, R.Q.Qudratov, F.A.Kerimov, R.M.Matkarimov, S.S.Tajibayev, M.S.Olimov, N.T.To‘xtaboyev, I.R.Soliyev, K.F.Ruzamuxamedov, A.M.Baratov] sportchilarni texnik tayyorgarlik darajasini takomillashtirishga qaratilgan bir qator vosita va usullarni foydalanish samarali ekanligi haqida izlanishlar olib borishgan.

Shug‘ullanuvchilarning sport tayyorgarligiga qo‘yilayotgan yuqori talablar murabbiy va o‘qituvchilarni iqtidorli yengil atletikachilarni saralashning zamonaviy, obyektiv mezonlari bilan tayyorlash zaruratini yuzasidan [A.P.Bondarchuk, A.I.Jilkin, V.S.Kuzmin, E.V.Sidorchuk, N.G.Ozolin] ilmiy ishlar olib borishgan. Biroq yengil atletika bo‘yicha mutaxassis murabbiylarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash tizimida ilmiy adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalarda saralash muammosi hamda iqtidor egalarini saralash va bashorat qilish ilmiy asoslangan nazariy tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Saralash va sport turlariga qobiliyati bor o‘quvchilarni sport turlariga yo‘naltirish muammosi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning mustaqil yo‘nalishiga aylandi, bunda uni hal etishga umumiy metodologik yondashuv asosida tashkil etish lozimligini ko‘rsatadi. Birinchidan, sportning muayyan bir turidagi yuqori malakali sportchilar oldiga qo‘yiladigan talablarni aniqlashtirib olish lozim. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalari yordamida alohida sifat va xususiyatlarni rivojlantirish natijasiga ko‘ra, sport natijasining shartlilik natijasini aniqlash kerak. Uchinchidan, yangi shug‘ullanishni boshlagan shug‘ullanuvchilarni mazkur tanlab olingan sport turi uchun zarur bo‘lgan sifatlarni aniqlash lozim.

Nayza uloqtirish mashg‘ulotidagi tayyorgarlik turlarining eng muhimlaridan biri –bu, maxsus jismoniy va texnik tayyorgarlik hisoblanadi hamda uni to‘g‘ri tashkil etish sportda natijalarni o‘sib borishini ta‘minlaydi. Bu borada, hozirgi vaqtda jahonda, bir qator yangi vosita va usullar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, nayza

uloqtirishning asosiy mashg'ulotini mazmuni, bu texnikani takomillashtirish hisoblanadi va bu o'z navbatida portlovchi kuchni oshirishga ham yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ilmiy uslubiy adabiyotlarning tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, instrumental, matematik-statistika usullaridan foydalanganligi bayon etilgan. Joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba muddatlari, sanalari, tajribaning dasturi, nazorat va tajriba guruhlarida o'tkazilgan mashg'ulotlarning mazmuni, ularning farqi, tajriba guruhida qo'llanilgan mashqlar majmualari, ularni qo'llash tartibi, takrorlashlar soni va boshqa shart-sharoitlar ochib berilgan.

Pedagogik tadqiqotlar uch bosqichda tashkil etilgan. Jumladan:

I bosqich (2019-2020-yillar) mavzuga oid me'yoriy hujjatlar, yillik tayyorgarlik dasturlari rejalari, ilmiy-uslubiy adabiyotlar hamda statistik ma'lumotlar qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Nayza uloqtiruvchilar bilan o'tkazilgan mashg'ulot uslubiyati mazmuni, tayyorgarlik davrdagi UJT va MJT nisbatlarini taqsimlanishi, mashg'ulotlar hajmi, shiddati, mazmuni va yo'nalishlari muhokama etildi. Tahlil asosida o'rganilgan ilmiy uslubiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar, tadqiqot natijalari yetakchi olimlarni fikr mulohazalari asosida dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari belgilanib, tadqiqot uslublari hamda dastlabki tadqiqotlar o'tkazildi.

II bosqich 2021-yil, mart-aprel oylarida tajriba oldi tadqiqotlari o'tkazildi. Jumladan nayza uloqtiruvchi sportchilarning yillik tayyorgarlik dasturlari, mashg'ulotlar soni, mashg'ulotlar hajmi, mashg'ulot shiddati, mazmuni va yo'nalishi, musobaqalar natijasi, jismoniy tayyorgarligi hamda ularni shakllanish dinamikasi o'rganilib, pedagogik kuzatuv ostiga olindi. Olingan natijalar individual guruh va yangi tartibda statistik uslublar yordamida tahlil etildi.

III bosqich 2022-yil iyun oyidan 2022-yil oktyabr oyigacha pedagogik tajriba o'tkazildi. Pedagogik tajribaga oliy sport mahorati maktabi sportchi nayza uloqtiruvchilarning 24 nafari jalb etilib, ularni yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab ikki guruhga tajriba va nazorat guruhiga ajratilib ular bilan pedagogik tajriba tashkil etildi. Tajriba guruhi sinaluvchilari uchun biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tayyorgarlik mashg'ulotlari bo'yicha rejalashtirilgan mashg'ulotlarda ishtirok etdi. Ular bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar haftasiga 5 kun 2 mahaldan mashg'ulotlar o'tkazildi. Ular bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarni optimallashtirgan rejasi quyida jadvallarda berilgan.

Tadqiqot ishi sportda kamolotga erishish guruhi nayza uloqtiruvchi sportchilarining mashg'ulot jarayonlarida olib borilgan va unda, tajriba guruhida 12 nafar, nazorat guruhida 12 nafar sportchilar ishtirok etgan. Respublika oliy sport mahorati maktabida shug'ullanuvchi sportda kamolotga erishish guruhi nayza uloqtiruvchi sportchilarining yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini takomillashtirishga qaratilgan mashg'ulot uslubiyati asoslab berilgan. Tadqiqot davomida olingan natijalarning o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi ( $\bar{X}$ ), uning standart kvadratik og'ishmasi ( $\sigma$ ), absolyut o'sishi (%), ko'rsatkichlar o'zgarishi qiymati va ishonchliligi (P) kabi statistik mezonlar orqali hisoblab tahlil etilib dissertatsiya ishi shakllantirilgan va rasmiylashtirilgan.

Dissertatsiyaning “**Nayza uloqtiruvchilarni jismoniy rivojlanganlik va tayyorgarlik ko‘rsatkichlari hamda mashg‘ulot yuklamalarining taqsimlanishi**” deb nomlangan uchinchi bobida nayza uloqtiruvchilarni jismoniy rivojlanganlik tuzilishi, jismoniy tayyorgarlik darajasi va uning shakllanish xususiyatlari, yillik tayyorgarlik siklida qo‘llanilgan mashg‘ulot yuklamalarining mazmuni xususida muallif o‘zining fikrlari va tadqiqot davomida kuzatilgan natijalarni taqdim etgan. Nayza uloqtiruvchilarning jismoniy rivojlanishi darajalari ko‘rsatkichlari aniqlangan hamda olingan natijalar dissertatsiya ishida belgilangan tartibda jadvallar orqali ifoda etilgan. Nayza uloqtirishda sport mahorati talablari o‘ziga borar ekan sport natijalari dinamikasi ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan bog‘liqdir. Nayza uloqtiruvchilarning tana o‘lchamlari, tana og‘irligi organizimning rivojlanganlik darajasi bir-biri bilan mutanosib bo‘lishi kerak. Ushbu omillarni hisobga olgan holda biz tomonimizdan nayza uloqtiruvchi sportchilarni jismoniy rivojlanganlik darajasi o‘rganildi (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Tadqiqot boshida tajriba (n=24) va nazorat (n=24) guruhlarini sinaluvchilarining jismoniy rivojlanganlik ko‘rsatkichlari statistik xarakteristikalarini solishtirish

№	Tana uzunligi, sm	Tana vazni, kg	Quloq uzunligi sm	Yelka kengligi, sm	Gavda uzunligi, sm	Yelka uzunligi, sm	Bilak uzunligi, sm	Oyoq uzunligi, sm	Oyoq son uzunligi, sm
<b>Tajriba guruhi</b>									
$\bar{X}$	178,1	80,8	183,2	44,8	93,0	32,1	35,5	94,2	43,0
$\sigma$	5,1	6,4	7,9	2,8	4,9	0,7	1,7	2,1	1,8
V, %	2,86	7,92	4,31	6,25	5,27	2,18	4,79	2,23	4,19
<b>Nazorat guruhi</b>									
$\bar{X}$	178,3	81,3	182,9	44,5	93,1	32,3	35,4	94,0	43,3
$\sigma$	5,8	4,2	8,2	2,3	4,6	0,7	1,4	2,8	1,7
V, %	3,25	5,17	4,48	5,17	4,94	2,17	3,95	2,98	3,93
AF	0,20	0,50	0,30	0,30	0,10	0,20	0,10	0,20	0,30
NF	0,11	0,62	0,16	0,67	0,11	0,62	0,28	0,21	0,70
t	0,13	0,32	0,13	0,41	0,07	0,99	0,22	0,28	0,59
P	>0,8	>0,7	>0,8	>0,6	>0,9	>0,3	>0,8	>0,7	>0,5

Tadqiqotga jalb qilingan nayza uloqtiruvchilarning tadqiqot oldi jismoniy rivojlanganligi darajasini o‘rganish natijasida quyidagicha xulosa qilish imkonini berdi. Unga ko‘ra, biz tomonimizdan tadqiqotga jalb qilingan sinaluvchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazgan pedagogik tajriba natijalariga ko‘ra, tajriba guruhi sinaluvchilari tana uzunligi o‘rtacha 178,1 sm.ga teng bo‘lgan bo‘lsa, nazorat guruhida o‘rtacha tana uzunligi ko‘rsatkichi 178,3 sm.ni tashkil etdi. Tana vazni og‘irligi o‘rtacha tajriba guruhi sinaluvchi sportchilari o‘rtacha 80,8 kg.ni tashkil qilgan bo‘lsa, nazorat guruhi sinaluvchilarida o‘rtacha tana vazni og‘irligi 81,3 kg.ni tashkil qildi. Quloq kengligi o‘rtacha ko‘rsatkichi tajriba guruhida 183,2 sm.ni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha nazorat guruhi sinaluvchilari o‘rtacha 182,9 sm.ni tashkil etdi. Yelka kengligini o‘lchaganimizda tajriba guruhi sportchilarining o‘rtacha 44,8 sm.ni aniqlagan bo‘lsak, nazorat guruhi sinaluvchilarida o‘rtacha 44,5 sm tashkil etdi. Gavda uzunligining o‘rtacha ko‘rsatkichi bo‘yicha tajriba guruhi sinaluvchilari 93,0 sm tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida o‘rtacha 93,1 sm.ni tashkil qildi. Yelka uzunligi o‘lchaganimizda

tajriba guruhi sinaluvchilarida 32,1 sm tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilarida o'rtacha 32,3 sm.ni tashkil etdi. Bilak uzunligi tajriba guruhida o'rtacha 35,5 sm ko'rsatkich bilan kifoyalangan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich o'rtacha 35,4 sm.ni ko'rsatdi. Oyoq uzunligi bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilarida o'rtacha ko'rsatkich 94,2 sm tashkil qilgan bo'lsa, nazorat guruhida 94,0 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oyoqning son uzunligi tajriba guruhi sinaluvchilarida o'rtacha 43,0 sm natijani ko'rsatdi, nazorat guruhida sinaluvchi sportchilarida o'rtacha 43,3 sm natija ko'rsatdi. Tadqiqotimiz davomida aniqlangan natijalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, tajriba va nazorat guruhi sinaluvchi sportchilarida antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha juda katta farq yo'qligini tadqiqotimiz davomida aniqladik.

Xorijiy yetakchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida berilgan ma'lumot natijalari bilan solishtirilganda bizning sportchilar bir xil shakllanganligini ifodalalmadi. Albatta ushbu ko'rsatkichlar nayza uloqtiruvchi sportchilarning sport natijasini yaxshilashga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Biz tadqiqot oldidan nayza uloqtiruvchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida dastlabki pedagogik tadqiqotni o'tkazdik. Ularni jismoniy tayyorgarligini maxsus testlar asosida aniqlashga e'tibor qaratdik.

Nayza uloqtiruvchilar uchun 30 m yugurish, 60 m yugurish, turgan joyidan uzunlikka sakrash, turgan joyidan 3 hatlab sakrash, shtanga bilan o'tirib turish, yotgan xolda shtanga ko'tarish, dast ko'tarish, shtangani pastdan belgacha tortish, shtangani yelkadan dast ko'tarish, turgan joyidan nayza uloqtirish, besh qadamda yugurib nayza uloqtirish testlari olindi va quyidagi 2-jadvalda keltirib o'tildi.

2-jadval

**Pedagogik tadqiqot boshida tajriba (n=24) va nazorat (n=24) guruhlarini nayza uloqtiruvchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik xarakteristikalarini solishtirish**

T/r	30 m yugurish, s	60 m yugurish, s	Turgan joyidan uzunlikka sakrash, sm	Turgan joyidan 3 hatlab sakrash, sm	Shtanga bilan o'tirib turish (maksimalni 60 % bilan 20 soniyada) , kg	yotgan xolda shtanga ko'tarish (maksimalni 60 % bilan 20 soniyada)	dast ko'tarish (maksimalni 60 % bilan 20 soniyada)	shtangani pastdan belgacha tortish (maksimalni 60 % bilan 20 soniyada)	shtangani yelkadan dast ko'tarish (maksimalni 60 % bilan 20 soniyada)	Turgan joyidan nayza uloqtirish (800 g), m	Besh qadamda nayza uloqtirish (800 g), m
<b>Tajriba guruhi</b>											
$\bar{X}$	5,29	8,95	218,4	695,3	11,1	14,1	12,3	13,67	20,1	37,21	45,61
$\sigma$	0,67	1,07	24,58	76,34	1,44	1,68	1,31	1,64	2,58	4,08	5,58
V, %	12,67	11,96	11,25	10,98	12,97	11,91	10,65	12,00	12,84	10,96	12,23
<b>Nazorat guruhi</b>											
$\bar{X}$	5,28	8,94	217,5	693,7	11,2	13,9	12,1	13,7	20,17	37,69	45,82
$\sigma$	0,66	1,09	22,96	71,59	1,36	1,58	1,28	1,52	2,54	3,98	5,31
V, %	12,50	12,19	10,56	10,32	12,14	11,37	10,58	11,09	12,59	10,56	11,59
AF	0,01	0,01	0,90	1,60	0,10	0,20	0,20	0,03	0,07	0,48	0,21
NF	0,19	0,11	0,41	0,23	0,90	1,42	1,63	0,22	0,35	1,29	0,46
t	0,05	0,03	0,13	0,07	0,25	0,42	0,53	0,07	0,09	0,41	0,13
P	>0,9	>0,9	>0,8	>0,9	>0,8	>0,6	>0,5	>0,9	>0,9	>0,6	>0,8

Biz nayza uloqtiruvchi sportchilarni 24 nafarini tadqiqotimizga jalb etdik va Biz nayza uloqtiruvchi sportchilarni 24 nafarini tadqiqotimizga jalb etdik va ularni ikki guruhga, tajriba va nazorat guruhlariga 12 nafardan saralab oldik. Jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida tadqiqot oldidan pedagogik tajriba o'tkazdik.

Tadqiqotda ishtirok etgan tajriba guruhi sinaluvchilari tezkorligini aniqlash uchun 30 m.ga start oldidan yugurishda o'rtacha 5,29 s. natijani qayd etgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilari ushbu masofani bosib o'tishga 5,28 son. vaqt sarfladi.

60 m masofaga pastki startdan chiqib yugurishda tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rtacha natijasi 8,95 son.ga teng ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa 60 m masofaga (pastki startdan) yugurish bo'yicha o'rtacha natija tajriba guruhi bilan teng 8,94 s. ekanligi aniqlandi.

Turgan joyidan uzunlikka sakrash testida tajriba guruhi sinaluvchilari 218,4 sm natija ko'rsatgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilari 217,50 sm natija ko'rsatgani tajriba davomida kuzatildi.

Turgan joyidan uch hatlab sakrash testida tajriba guruhi sinaluvchilari o'rtacha natija 695,3 sm natija ko'rsatgan bo'lsa, ushbu testda nazorat guruhi sinaluvchilari 693,7 sm natijani qayd etishdi.

Shtanga bilan o'tirib turish (maksimal ko'taradigan o'girlikni 60 % bilan 20 soniyada) tajriba guruhi sinaluvchilari o'rtacha 11,1 marta natijani ko'rsatgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilari ushbu testda 11,2 marta natijani ko'rsatishdi.

Qo'l kuchini aniqlash uchun o'tkazilgan yotgan holda shtanga ko'tarish (maksimal ko'taradigan o'girlikni 60 % bilan 20 soniyada) tajriba guruhi sinaluvchilari 14,08 marta natija ko'rsatgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilari esa 13,67 marta natija ko'rsatdi.

Portlovchi kuchini aniqlash uchun o'tkazilgan dast ko'tarish (maksimal ko'taradigan o'girlikni 60 % bilan 20 soniyada) mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari 11,92 marta ko'targan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilari ushbu ko'rsatkich 12,08 martaga teng bo'ldi.

Bel kuchini aniqlash uchun o'tkazilgan shtangani pastdan belgacha tortish mashqida (maksimal ko'taradigan o'girlikni 60 % bilan 20 soniyada) tajriba guruhi sinaluvchilari 14,1 marta natija ko'rsatgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 13,9 martani tashkil etdi.

Bosh ortidan dast ko'tarish (maksimalni 60 % bilan 20 soniyada) mashqini bajarishda tajriba guruhi sinaluvchilari o'rtacha 20,1 marta toshni ko'targan bo'lsa, ushbu testda nazorat guruhida o'rtacha 20,17 martaga teng bo'ldi.

Sinaluvchilarning sport natijalarini bilish maqsadida turgan joyidan nayza uloqtirish (800 g) da tajriba guruhi sinaluvchilari o'rtacha 37,21 sm natijani ko'rsatdi. Nazorat guruhi sinaluvchilari turgan joyidan nayza uloqtirish (800 g) mashqini bajarish bo'yicha o'rtacha 37,69 sm natijani ko'rsatdi.

Besh qadamda nayza uloqtirish (800 g) mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari 45,61 sm natija qayd etishgan bo'lsa, ushbu testda nazorat guruhi sinaluvchilari 45,82 sm natijani ko'rsatdi.

Biz tomonimizdan nayza uloqtiruvchilarni jismoniy tayyorgarligini baholashda 11 ta ko'rsatkich bo'yicha nazorat testlari olindi. Olingan natijalar pedagogik tajribaga jalb etilgan tajriba guruhi sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarligini baholash imkonini berish bilan bir qatorda ularga yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini mukammal variantini ishlab chiqish lozimligini ko'rsatadi. Shu boisdan, biz tomonimizdan pedagogik tajriba o'tkazildi va dastlabki olingan natijalariga asoslanib, nayza uloqtiruvchi sportchilar uchun yillik tayyorgarlik mashg'ulot yuklamalarining optimallashtirilgan rejasini ishlab chiqish imkonini berdi.

Ushbu bosqichda mashg'ulotlar tarkibida yeng muhim o'rinni musobaqalar egallaydi. Ulardagi chiqishlarning chastotasi va nayza uloqtiruvchilarning umumiy soni ko'p jihatdan muayyan shartlarga bog'liq, ammo amalda ko'p musobaqalarni mashg'ulot sifatida ko'rib, mavsumning asosiy boshlanishiga olib keladigan haftalik musobaqalarda qatnashish kerak.

Mashg'ulotlarning barcha yakuniy natijasi bevosita mavsumning muhim musobaqalariga tayyorgarlik ko'rishga alohida katta e'tibor qaratish lozim. Bosqichni mavsumning asosiy musobaqasidan 6-8 hafta oldin boshlash va quyidagi uslubiy qoidalarga e'tibor qaratgan holda o'tkazish tavsiya etiladi:

- mashg'ulotlarda yetakchi vositalari ustida ishlash ikki haftalik sikllar prinsipiga asoslanadi;

- rivojlanayotgan texnikani takomillashtirish uchun haftalik ikki martalik sikllar mavsumning asosiy musobaqalaridan 4 hafta oldin, maxsus jismoniy tayyorgarlik 2-3 hafta oldin amalga oshiriladi;

- oxirgi haftalarda ish hajmini yuqori ish hajmini kamaytirib sportchining jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini saqlashga qaratilgan.

Musobaqa oldidan ikki kundan ortiq dam olish tavsiya yetilmaydi. Musobaqa boshlanishidan bir kun oldin yoki hatto musobaqa kunida yengil mashqlar yoki maxsus egiluvchanlik mashqlari sportchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musobaqa oldi sportchilar birinchi navbatda qizish mashqlarini qilishi, mashg'ulotlar puxta o'ylangan va modellashtirilgan bo'lishi kerak. Bu yerda har bir urinishdan oldin cho'zilish mashqlarini bajarish kerak.

Musobaqa natijalari har doim tahlil qilib borish lozim. Shu bilan birga, keyingi o'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtirishga muayyan tuzatishlar kiritish uchun ham ijobiy, ham salbiy tajribalarga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Nayza uloqtiruvchilarning o'tish davri 4-5 hafta davom etadi va bir qator ko'p va shiddatli musobaqalardan so'ng to'liq tiklanishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun asosiy vositalar umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun turli xil sharoitlarda bajarilishi ma'qul bo'lgan mashqlardir. Biroq, bu vaqtda asosiy musobaqa mashqlaridan to'liq voz kechishga asoslanmasligi kerak. Bu vaqtda nayza uloqtirish texnikasining alohida elementlarini bajarishda texnik xatolarni bartaraf etish, texnik mahoratni yanada oshirish yo'llarini tushunish bo'yicha ham qo'shimcha ishlarni bajarish tavsiya etiladi.

Sport amaliyotida xorij mamlakatlarida nayza uloqtirish turiga ixtisoslashtirilgan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimi va mashg'ulot jarayonini rejalashtirish, mashg'ulotlarni o'tkazishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari sohaning yetuk olimlari tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Nayza uloqtiruvchilarning mashg'ulotlarini rejalashtirish, sportchilarni jismoniy tayyorgarligiga mos ravishda mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan vosita va usullarni tanlash, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik yuklamalarining nisbatlari, takrorlanishlar soni mashg'ulotlarni olib borish uslublariga bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilishi, o'z navbatida nayza uloqtirish bo'yicha xalqaro va nufuzli musobaqalarga tayyorlash holatini ko'rsatib berib, oldinga qo'yilgan sport natijasini qayt etishiga imkon yaratadi.

Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarini o'rganish va umumlashtirish natijasida 1-razryad va SUN sportchilar uchun nayza uloqtiruvchi sportchilarning yillik mashg'ulot yuklamalarini rejasini ishlab chiqdik.

## Yillik mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish (1-razryad va SUN sportchilar uchun)

№	Bosqich	Kuz qishki tayyorgarlik tayyorgarligi			Qishki tayyorgarlik			Bahorgi tayyorgarlik			Yozgi tayyorgarlik	Asosiy musobaqalar			Dam olish davri	jami
		11	12	01	02	03	04	05	06	07		08	09	10		
	Oylar	11	12	01	02	03	04	05	06	07	08	09	10			
1	Mashg'ulot kunlari soni	26	23	23	22	28	22	24	23	29	22	27	16	286		
2	Mashg'ulotlar soni	27	28	29	17	34	29	28	23	29	22	27	16	309		
3	Musobaqa soni	0	0	0	1	0	2	2	2	3	0	2	0	12		
4	Boshqa turlari bo'yicha musobaqalar	0	0	0	1	0	0	1	1	0	0	0	0	3		
5	Umumiy rivojlantiruvchi mashqlari, s	13	12	12	8	13	12	6	6	7	5	5	13	112		
6	Taqlid qilish mashqlari s,	2	2	3,5	2,5	4	2,5	2	2	2,5	2	2	0	27		
7	Nayza uloqtirish 1j va 3-5 qadam, marta	150	125	125	165	180	190	170	120	95	75	95	80	1570		
8	Qisqa va to'liq masofadan yugurish, marta	45	60	85	135	115	140	165	155	170	135	105	0	1305		
9	Joydan turib yengil snaryadni uloqtirish, marta	145	125	130	170	215	150	155	110	110	105	110	180	1705		
10	Yugutib kelib yengil snaryadni uloqtirish, marta	35	40	75	130	85	75	155	175	140	145	95	0	1150		
11	Og'ir snaryatni turgan joyidan uloqtirish, marta	115	190	200	170	220	150	135	105	75	80	50	0	1490		
12	Yugurib kelib uloqtirish, marta	15	50	70	30	135	115	105	90	80	60	45	0	795		
13	Yordamchi snaryadlarni uloqtirish, marta	540	590	520	340	725	380	340	195	150	170	185	210	4345		
14	Nayza va snaryadlar bilan yugurish, m	420	440	480	480	700	640	660	460	560	440	430	540	6340		
15	Sptint yugurishlar, km	4,7	3,2	3,3	4	4,8	3,7	3	4	3,7	3,1	2,8	0	40,3		
16	Sakrash va depsinish mashqlari	620	630	730	500	790	660	605	500	510	360	350	0	6255		
17	Kuch mashqlari, t	38	53	63	36	58	50	32	30	32	28	26	0	446		
18	Akrobatik, gimnastika snaryadlarida mashqlar, s	2,5	2	2	2	2,5	2	2	2	2,5	2	2,5	2	26		
19	Kross yugurish, s	5	4	4	2	5	2,5	2	2	5	4	5	8	42		
20	Sport o'yinlari, s	2,8	2,3	2,3	1,6	2,5	1,5	1,2	1,2	2,4	1,1	2,1	9	29,5		
21	Suzish, sayr qilish, s	2,1	2,5	2,5	2	3,5	2,5	2	0,9	2,6	1,9	1,6	24	29,1		
22	Nazorat mashqlari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	11		
23	Tibbiy ko'rik	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	4		
24	Qayta tiklanish	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	52		

Biz tomonimizdan 1-razryad va SUN nayza uloqtiruvchi sportchilarning yillik mashg'ulot yuklamalarini rejasini ishlab chiqdik. Unga ko'ra yillik mashg'ulotlar soni 309 tani tashkil etdi. Tayyorgarlik bosqichida nayza uloqtirishning asosiy elementlarini takomillashtirish, o'ziga xos vosita va usullar orqali umumiy hamda maxsus jismoniy ko'rsatkichlarini rivojlantirish, organizmni funksional imkoniyatlarining oshirishga e'tibor qaratdik. Nayza uloqtirish mashg'ulotlarining asosiy qismida bir qator muhim vazifalar hal qilinadi, bu to'ldirma to'plar bilan mashqlar, har-xil og'irlikdagi jismlarni bir va ikki qo'llab bosh orqasidan uloqtirish mashqlarni o'z ichiga oldi. Nayza uloqtiruvchilar uchun kuzgi - qishki tayyorgarlik davrida musobaqalar deyarli rejalashtirilmaydi. Sakrashlar va o'gir snaryadlar bilan yuklamalar asta oshirib borildi.

Qishki tayyorgarlik davrida asosiy mashg'ulotlar to'ldirma to'plar bilan yakuniy harakat elementlarini taqlid qilish, og'irlashtirilgan jismlarni uloqtirish, 3-5 qadamdan nayza uloqtirish, shtanga bilan mashqlaridan keng foydalanildi. Shtanga bilan ishlanadigan mashqlarini og'irligini ortirib borishga e'tibor qaratildi (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Qishki tayyorgarlik haftasida qo'llanilgan mashg'ulot uslubiyati

H/k	Maqsad	Vazifa
D	Texnikaga takomillashtirish qaratilgan mashqlar	Yengil yugurish 8-10 daqiqa. URM 20-25 daq. To'ldirma to'plar bilan yakuniy harakat elementlarini taqlid qilish (1-2 kg) 10-15 daq. Turgan joyidan va 3-5 qadamdan nayza uloqtirish 20-25 marta, to'liq masofadan nayza uloqtirish 10-15 marta, to'ldirma to'p yoki shtanga blini bilan (1,0-1,5 kg) joyida turib 40 marta. Kompleks mashqlar yuqori yelka kamari muskullari uchun 70x8x2. Nayza uloqtiruvchi uchun maxsus kuch mashqlari (6-7) to'plami. Tezlikka yugurish 6x40 m (90%). Yakunlovchi yugurish. Cho'zilish mashqlari.
S	Kuchni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar	Yengil yugurish 8-10 daqiqa. URM 20-25 daq. Cho'zilish mashqlari. Shtanga bilan mashqlar: dast ko'tarish 40x8x2, 50x6x2, 60x4x2, 70x2x2, 50x8x1, shtangani ko'krakkacha ko'tarish 50x8x2, 60x6x2, 70x6x2, 80x4x2, 90x4x2, 100+bittadan. Yelkadan dast ko'tarish 60x4x1, 70x4x1, 80x2x1, 90x2x1, shtangani yelkaga qo'ygan xolda o'tirib turish, 90x2x4, 100+bittadan. Yakunlovchi yugurish. Cho'zilish mashqlari. Yakunlovchi yugurish 600-800 m. Cho'zilish mashqlari.
Ch	Texnikaga takomillashtirish qaratilgan mashqlar	Yengil yugurish 8-10 daqiqa. URM 20-25 daq. Maxsus yugurish mashqlari 4-6x40 m. Shtanga lappagi bilan (5-10 kg) yakuniy harakat elementlarini taqlid qilish 7-8 daq. joydan turib nayza uloqtirish: 10-15 marta, chalishtirma qadamda va yugurib kelib nayza uloqtirish (0,7 kg) 25-30 marta, nayza bilan chalishtirma qadamda yugurish - 6x60 m., tezlikka yugurish 6x60 m. Yakunlovchi yugurish 600-800 m. Cho'zilish mashqlari.
P	Organizmni tiklash	Dam olish. Sport o'yinlari, kross, sayr.
J	Portlovchi	Yengil yugurish 8-10 daqiqa. URM 15-20 daq. yadro uloqtirish oldinga, orqaga (4-6 kg) 2x12 marta. Turgan joyidan uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, besh hatlab sakrash, sakrash, uch marta, besh marta 4x40 m.
Sh	Kuchni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar	Badanni qizdirish uchun sport o'yinlari 15-20 min. URM 15 daq. Shtanga bilan mashq qilish: shtangani ko'krakka ko'tarib yarim o'tirib turish 50x8x1, 70x6x1, 80x6x1, 90x4x4, siltab ko'tarish 60x5x3, 80x4x4; shtanga bilan o'tirib turish 70x6x1, 100x6x1, 120x6x1, 140x4x2, 160x4x2, 180x4x2, Yotgan xolda shtanga ko'tarish 40x8x1, 70x8x1, 80x6x1, 90x4x1, 110x2x4, qorin mushagi uchun mashqlar 40x8x5 ta takroriy.
Y.		Dam olish. Sauna, suzish.


Musobaqaoldi tayyorgarlik haftasida nayza uloqtiruvchilar uchun mashg'ulotlarni kunda bir mahal o'tkazish maqsadga muvofiqdir (imkon bo'lsa start vaqtini inobatga olish lozim).

## 5-jadval

### Yozgi musobaqa oldi tayyorgarlik haftasida qo'llanilgan mashg'ulot uslubiyati


H/k	Maqsad	Vazifa
D	Texnikaga takomillashtirishga va kuch mashqlar	Yengil yugurish 8-10 daqiqa. URM 10-15 daq. yugurish mashqlari 6x2x30 m.ga. yadro uloqtirish (3-4 kg) oyoqlarni parallel qo'ygan holda nayza uloqtirish ikki qo'llab, bir qo'lda 20-30 marta, bir qadam, uch qadam, besh qadamdan nayza uloqtirish 10-15 martadan, to'liq masofadan yugurib kelib nayza uloqtirish 15-20 marta. Maxsus kuch mashqlari: shtangani das ko'tarish 60x6x2 takroriy, 80x4x4 takroriy ko'tarish, shtangani siltab ko'krakgacha ko'tarish 90x2x8, Yakunlovchi yugurish. Cho'zilish mashqlari.
S	Texnikaga takomillashtirish	Yengil yugurish 8-10 daqiqa. Umumiy rivojlanish mashqlari (URM) 10-15 daq. Yengil atletika yugurish mashqlari 6x2x30 m.ga. Yengil snaryadni turgan joydan uloqtirish (600-700 gr) 15-20 martadan, To'liq masofadan yugurib kelib uloqtirish 25-30 marta Tezlikka yugurish 4-5x50 m.
Ch	Texnikaga takomillashtirish	Yengil yugurish 8-10 daqiqa. URM 10-15 daq. Yengil atletika yugurish mashqlari 6x2x30 m.ga. Og'ir snaryadlarni uloqtirish (1-1,2 kg) 15 marta, 3-5 qadamdan uloqtirish (0,9-1 kg) 10-12 marta,. G'ovlardan sakrab o'tish 10x6-8 marta takroriy. Nayza bilan yugurish 3-4x40 m. 4-5x80 m ga takroriy yugurish. Rezinka bilan cho'zilish mashqlari. Yakunlovchi yugurish. Cho'zilish mashqlari.
P	Texnikaga takomillashtirish	Yengil yugurish 8-10 daqiqa. URM 10-15 daq. Yengil atletika yugurish mashqlari 6x2x30 m.ga. 2-3 kl. to'ldirma to'plar bilan mashqlar 8x2x10. Nayza bilan maxsus mashqlar 10-15 daq. Joyidan turib nayza uloqtirish 10-15, yaqin masofadan yugurib kelib uloqtirish 15-20 marta, yugurish mashqlari.
J	Organizmni tiklash	Dam olish.
Sh	Organizmni tiklash mashqlari	Musobaqa oldi mashg'ulot. Sekin yugurish 6-8 min. Umumiy rivojlanish mashqlari (URM) 10-15 daq. Shtanga blini bilan taqlid mashqlari 10-15 min. Nayza uloqtirishga ta'luqli yordamchi snaryadlarni uloqtirish 15-20 marta.
Y	Yuqori sport natijaga erishish	Musobaqa. 68,48 sm SUN talabini bajardi.

Musobaqa oldi tayyorgarlik haftaligida yuklama hajmini kamaytirib, shiddat oshiriladi. Shtanga bilan bajariladigan mashqlarning hajmi va bajarilish soni kamaytirib berish lozim. Musobaqaga 3-4 kun qolganda mashg'ulotlarda nayza uloqtirishni to'xtatib, asosan uloqtirish sektorida yugurib kelish va chalishtirma qadamga o'tish va oxirgi kuch berish texnikasiga texnik harakatlar va taqlid qiluvchi mashqlardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.



**1-rasm. Nayza uloqtiruvchilarning chalishtirma qadamda yugurishga o'rgatish uchun maxsus mashqlar majmuasi**

Nayza uloqtiruvchilarning chalishtirma qadamlar ritmini bir me'yorga keltirish uchun qo'llanilgan maxsus mashqlar majmuasini yugurib kelib uloqtirishda sportchining qadamlarini bir xil tashlashga yordam beradi. Bu esa oxirgi kuch berish (snaryad qo'ldan chiqingacha) vaqtida to'xtab qolishni oldini oladi.



**2-rasm. "Javelin Bek Imitation-800" trenajoring tuzilishi**

Ushbu trenajorning maqsadi – snaryadni uchib chiqish burchagini optimallashtirishdan iborat. Ushbu trenajorda nayza uloqtirishga taqlid qilish bilan bir qatorda, nayzaning uchib chiqish burchagi nazorat qilish mumkin.

Uskunaning tuzilishi quyidagi qismlarga bo'linadi. Devorga vertikal ravishda o'rnatildi (1) va uloqtirish tomonga yo'naltiriladi. Yo'nalish bo'ylab shtanga (4)

harakatlanadi, uning yuqori qismida rolik (2) mavjud bo‘lib, u orqali tross (5) tortilgan, u pastki uchida tirgak (11) bilan polga qotirilgan. Shtanga (4) bo‘sh, uning ichida yuk (6) mavjud trosning (5) ikkinchi uchiga birlashtirilgan va trossni tarrang holatini ta‘minlaydi. Shtanga (4) pastki holatda bo‘lganda (uning pastki uchi polda yotadi), gorizontaal burchagi  $30^\circ$  ni tashkil qiladi. Trossning egilish burchagini o‘zgartirish zarur bo‘lsa, tutqich (shtanga) (4) tutqich (8) yordamida kerakli balandlikka ko‘tariladi va teshiklardan (7) biriga o‘rnatilgan stopr bilan qotiriladi. Teshiklarning yuqori qismi  $45^\circ$  burchakka to‘g‘ri keladi.

Tross (5) ga snaryad o‘rnatilgan - elektron ma‘lumotlarni qayta ishlash va uzatish moslamasi bo‘lgan nayza simulyatori (9), shuningdek zarba yuklarini yumshatish uchun yuqori (3) va pastki (10) amperlar iborat. Agar kerak bo‘lsa, nayza simulyatorining o‘qiga kerakli og‘irliklar o‘rnatiladi.


Biz uskunani qo‘llanilishini quyidagi 3-rasmda ifoda etdik.



**3-rasm. Javelin Bek Imitation-800” trenajoridan foydalanishining ko‘rinishi**

Elektron qurilma otish vaqtida snaryadning tezlashishini o‘lchaydi va uloqtirishning kuchini va boshlang‘ich tezligini hisoblab chiqadi. Qabul qilingan ma‘lumotlar simsiz tarmoq orqali tadqiqotchining shaxsiy kompyuteriga uzatiladi. Unda har bir sportchining natijalarini qayta ishlash, saqlash va taqdim etish uchun maxsus dasturiy ta‘minot o‘rnatilgan.

Biz tomonimizdan sportda kamolotga erishish guruhi shug‘ullanuvchilari bilan mashg‘ulotlarni tashkil etish yuzasidan sportchilarning individual uloqtirish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks mashg‘ulot moduli ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, majmualiy nazorat qilish orqali shug‘ullanuvchilarning jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarlik darajalarini inobatga olib mashg‘ulot vositalarini tabaqalashtirish nazarda tutilgan. Jumladan, sportchilarning tezkorlik, kuch va egiluvchanlik sifatlarining shakllanganlik darajasidan kelib chiqib, ushbu jismoniy sifatlar bo‘yicha yuqori va past darajaga tabaqalashtirgan holda mashg‘ulot vositalari qo‘llanildi. Tezkorligi yuqori, ammo kuch sifati past darajali sportchilarga og‘irlashtirilgan buyumlar bilan mashqlar - shtanga, blin, girya, to‘ldirma to‘plar, turli og‘irlikdagi yadrolar va o‘zini og‘irlikdagi jismlar bilan bajariladigan mashqlar qo‘llanildi. Kuchi yuqori, ammo tezkorligi past darajali sportchilarga qisqa masofalarga takror yugurishlar, yuqori chastotali mashqlard qo‘llanildi.



4-rasm. Individual uloqtirish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks mashg'ulot moduli

Shiddati yuqori bo'lgan mashqlar qo'llanilgan bo'lsa, kuch sifati yuqori, biroq egiluvchanligipast sportchilarga turnik va gimnastik narvonda bajariladigan mashqlar – tortilishlar, ko'tarilib aylanishlar, cho'zilish mashqlari, relaksatsion mashqlar foydalanildi. Shuningdek, uloqtiruvchilarning individual uloqtirish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks texnik mashqlar hamda har bir mashg'ulot yakunida tiklovchi mashqlar va vositalar doimiy ravishda qo'llanib borildi. belgilangan tartibda tibbiy ko'riklar ham tashkil etildi.

Shug'ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini (texnik) doimiy tahlili asosida mashg'ulotlarni nazorat qilib borish yuqori sport natijasini ta'minlashga xizmat qilishi olib borilgan tadqiqot davomida kuzatildi.

Dissertatsiyaning “**Nayza uloqtiruvchilarning tadqiqotlar davomida olingan natijalar tahlil**” deb nomlangan to'rtinchi bobida nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida qo'llanilgan mashg'ulot yuklamalarini ularning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'siri dinamikasi hamda ularning qiyosiy tahlili natijalari bayon qilingan (6-jadvalga qarang).

Taning antropometrik ko'rsatkichlari yengil atletikada sportchilarning jismoniy rivojlanishi darajasini, ularning tana tuzilishi xususiyatlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Biz tadqiqot davomida sportchilarni jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini tadqiqot yakunida quyidagi 6-jadval orqali ifodaladik.

**6-jadval**


**Tajriba va Nazorat guruhi sinaluvchilarining tadqiqotdan boshida va tadqiqot oxiridagi jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi, (n=24)**

Test t.r.	Guruh	Tajriba boshi			Tajriba oxiri			AO'	NO'	t	P
		$\bar{X}$	$\sigma$	V, %	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %				
1	NG	178,3	5,8	3,25	179,7	5,9	3,28	1,4	0,79	0,83	>0,4
	TG	178,1	5,1	2,86	181,8	4,6	2,53	3,7	2,08	2,64	<0,05
2	NG	81,3	4,2	5,17	82,6	4,1	4,96	1,3	1,60	1,09	>0,2
	TG	80,8	6,4	7,92	85,4	4,3	5,04	4,6	5,69	2,92	<0,01
3	NG	182,9	8,2	4,48	183,3	7,7	4,20	0,4	0,22	0,17	>0,8
	TG	183,2	4,2	2,29	185,3	4,5	2,43	2,1	1,15	1,67	>0,1
4	NG	44,6	2,3	5,16	45,0	2,4	5,33	0,4	0,90	0,59	>0,5
	TG	44,8	2,8	6,25	46,7	2,3	4,93	1,9	4,24	2,57	<0,05
5	NG	93,1	4,5	4,83	93,4	4,2	4,50	0,3	0,32	0,24	>0,8
	TG	93,0	4,9	5,27	95,1	4,6	4,84	2,1	2,26	1,53	>0,1
6	NG	32,3	0,7	2,17	32,7	0,8	2,45	0,4	1,24	1,84	>0,05
	TG	32,1	0,7	2,18	32,9	0,7	2,13	0,8	2,49	3,96	<0,001
7	NG	35,4	1,4	3,95	35,6	1,4	3,93	0,2	0,56	0,49	>0,6
	TG	35,5	1,7	4,79	35,9	1,6	4,46	0,4	1,13	0,84	>0,4
8	NG	94,0	2,8	2,98	94,4	2,7	2,86	0,4	0,43	0,50	>0,6
	TG	94,2	2,1	2,23	94,6	2,1	2,22	0,4	0,42	0,66	>0,5
9	NG	43,3	1,7	3,93	43,6	1,6	3,67	0,3	0,69	0,63	>0,4
	TG	43,0	1,8	4,19	43,8	1,7	3,88	0,8	1,86	1,58	>0,1

**Izoh:** O'rtacha nisbiy o'sish farqi nazorat guruhida 0,75%, tajriba guruhida 2,37%

Ushbu jadvalda tadqiqotga jalb qilingan tajriba va nazorat guruhiga tanlab olingan 24 nafar nayza uloqtiruvchi sportchilarining antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagicha ifodalandi.

Tajriba guruhi sportchilarining tana uzunligi tadqiqot oldi o'rtacha 178,1 sm.ni ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha 181,8 sm.ni tashkil qildi. Nazorat guruhi sportchilarining o'rtacha tana uzunligi tadqiqot oldi o'rtacha 178,3 sm.ni ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha 179,7 sm.ni tashkil qildi. Tajriba guruhi sportchilarining tadqiqot avvalidagi o'rtacha tana vazni 80,8 kg.ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot so'nggida o'rtacha 85,4 kg.ni tashkil etdi. Nazorat guruhi sportchilarning tadqiqot oldi o'rtacha tana vazni 81,3 kg.ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqotdan so'ng ushbu ko'rsatkich o'rtacha 82,6 kg.ni tashkil etdi. Tajriba guruhi sportchilarining quloq uzunligi tadqiqot oldi o'rtacha 183,2 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa tadqiqot yakunida 185,3 sm.ni ko'rishimiz mumkin. Nazorat guruhi sportchilarining tadqiqot oldi o'rtacha ko'rsatkichi 182,9 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot yakunida 183,3 sm.ga o'sganini ko'rsatdi.



**5-rasm. Tajriba va Nazorat guruhi sinaluvchilarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari dinamikasi, (n=24)**

Yelka kengli tadqiqot boshida tajriba guruhi sportchilarida o'rtacha 44,8 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot oxirida o'rtacha 46,7 sm.ni tashkil qildi. Nazorat guruhi sportchilarining o'rtacha 44,6 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot yakunida 45,0 sm.ni tashkil qildi. Tajriba guruhi sportchilarining tadqiqot avvalgi o'rtacha gavda uzunligi 93,0 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa tadqiqot yakunida 95,1 sm.ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha nazorat guruhi sportchilarining gavda uzunligi o'rtacha 93,1 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 93,4 sm.ni o'sganini ko'rishimiz mumkin. Tajriba guruhi sportchilarining yelka uzunligi tadqiqot boshida o'rtacha 32,1 sm.ni bo'lgan bo'lsa tadqiqot oxirida o'rtacha 32,9 sm.ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha tadqiqot boshida nazorat guruhi sinaluvchilari o'rtacha 32,3 sm.ni bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 32,7 sm.ga o'sganini ko'rish mumkin. Tajriba guruhi sportchilarining bilak uzunligi tadqiqot boshida o'rtacha 35,5 sm.ni tashkil etgan bo'lsa tadqiqot yakunida o'rtacha ko'rsatkich 35,9 sm.ni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Nazorat guruhi sinaluvchi sportchilarida tadqiqot

boshida o'rtacha 35,4 sm.ni bo'lgan bo'lsa tadqiqot yakunida o'rtacha 35,6 sm.ni tashkil qildi. Tajriba guruhi sportchilarining tadqiqot avvalidagi o'rtacha oyoq uzunligi 94,2 sm.ni bo'lgan bo'lsa, yakunda 94,6 sm.ga o'sganini tadqiqot yakunida ko'rishimiz mumkin. Nazorat guruhi sinaluvchi sportchilarida tadqiqot boshida o'rtacha ushbu ko'rsatkich 94,0 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa tadqiqot yakunida o'rtacha ko'rsatkich 94,4 sm.ni tashkil qildi. Oyoq son uzunligi tajriba guruhi sportchilarining tadqiqot avvalidagi o'rtacha 43,0 sm.ni bo'lgan bo'lsa tadqiqot yakunida 43,8 sm.ni tashkil qildi. Nazorat guruhi sinaluvchi sportchilarida tadqiqot boshida 43,3 sm. bo'lgan bo'lsa tadqiqot yakunida 43,6 sm.ga o'sganini ko'rishimiz mumkin.


Sportchilarning jismoniy tayyorgarlik holati ham o'z navbatida o'zgarganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bunda ham tajriba guruhi sinaluvchilari nazorat guruhidagi sportchilarga nisbatan ijobiy ko'rinishda shakllanganini aniqlandi. Tadqiqotimizga jalb etilgan sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini ham quyidagi jadval orqali ifoda etib o'tdik. Mazkur ko'rsatkichlar tadqiqot avvalida va oxirida har ikkala guruh sinaluvchilarida ham ijobiy tomonga o'zgarganini guvohi bo'lishimiz mumkin, biroq, tajriba guruhi sportchilarining ko'rsatkichlari dinamikasida sezilarli darajada farqni kuzatish mumkin (7-jadval).

#### 7-jadval

#### Tajriba va Nazorat guruhi sinaluvchilarining tadqiqot oxiridagi jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari, (n=24)

№	Guruh	Tajriba boshida			Tajriba ohirida			t	P
		$\bar{X}$	$\sigma$	V, %	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %		
1	TG	5,29	0,67	12,67	4,26	0,516	12,11	4,2	<0,01
	NG	5,28	0,66	12,19	4,83	0,586	12,13	1,8	<0,05
2	TG	8,95	1,07	11,96	7,48	0,83	11,10	3,8	<0,01
	NG	8,94	1,09	10,56	8,33	0,93	11,16	1,5	>0,05
3	TG	218,4	24,58	11,25	275,52	27,92	10,13	5,3	<0,001
	NG	217,5	22,96	10,32	237,76	24,12	10,14	2,1	<0,05
4	TG	695,3	76,34	10,98	854,94	86,68	10,14	4,8	<0,001
	NG	693,7	71,59	12,14	739,92	74,68	10,09	1,5	>0,05
5	TG	11,1	1,44	12,97	14,19	1,72	12,12	4,8	<0,001
	NG	11,2	1,36	11,37	12,06	1,46	12,11	1,5	>0,05
6	TG	14,1	1,68	11,91	17,71	1,974	11,15	4,8	<0,001
	NG	13,9	1,58	11,58	15,09	1,68	11,13	1,8	<0,05
7	TG	12,3	1,31	10,65	14,01	1,42	10,14	3,1	<0,01
	NG	12,1	1,28	11,09	13,02	1,32	10,14	1,7	>0,05
8	TG	13,67	1,64	12,00	16,91	1,87	11,06	4,5	<0,001
	NG	13,70	1,52	12,59	14,55	1,62	11,13	1,3	>0,05
9	TG	20,1	2,58	12,84	24,14	2,92	12,10	3,6	<0,01
	NG	20,17	2,54	12,59	22,06	2,68	12,15	1,8	>0,05
10	TG	37,21	4,08	10,96	45,77	4,64	10,14	4,8	<0,001
	NG	37,69	3,98	10,56	41,19	4,18	10,15	2,1	<0,05
11	TG	45,61	5,58	12,23	55,45	6,17	11,13	4,1	<0,01
	NG	45,82	5,31	12,19	49,66	5,52	11,12	1,7	>0,05

Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi.



**6-rasm. Pedagogik tadqiqot yakunida Tajriba va Nazorat guruhi sinaluvchilarining nisbiy farqi**

**Izoh:** ushbu 7-jadval va 6-rasm testlar tartib raqamlarfa berilgan. Nazorat va Tajriba gurohi sinaluvchilarining tadqiqot yakunida olingan natijalarining nisbiy farqi berilgan (N/F, %). Olingan testlar raqamlarda berilgan. 1- 30 m yugurish (s.), 2- 60 m yugurish (s.), 3- turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm.), 4- turgan joyidan 3 hatlab sakrash (sm.), 5- shtanga bilan o'tirib turish (maksimalni 60 % bilan 20 s.), 6- yotgan xolda shtanga ko'tarish (maksimalni 60 % bilan 20 s.), 7- dast ko'tarish (maksimalni 60 % bilan 20 s.), 8- shtangani pastdan belgacha tortish (maksimalni 60 % bilan 20 s.), 9- shtangani yelkadan das ko'tarish (maksimalni 60 % bilan 20 s.), 10- Turgan joyidan nayza uloqtirish (800 g.), 11- Besh qadam yugurib nayza uloqtirish (800 g.).

Taqdim etilgan ushbu jadvalda tadqiqotga jalb etilgan har ikkala guruh sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tadqiqot avvali va oxiridagi o'rtacha qiymatlari ifoda etilgan bo'lib, natijalarning tadqiqot davomida o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Unga ko'ra, sportchilarning tezkorligini aniqlash testida 30 m. masofani tajriba guruhi tadqiqot avvalida o'rtacha 5,29 s. natija ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 4,26 s. natija qayd etdi. Nazorat guruhi sportchilari ushbu testni tadqiqot avvalida o'rtacha 5,28 s.ni ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa 4,83 s. natijani qayd etdi.

60 m. masofaga yugurishda tajriba guruhi tadqiqot avvalida o'rtacha 8,95 s. natijani qayd etgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 7,48 s.da yugurib o'tgan. Nazorat guruhi sportchilari bu masofani tadqiqot boshida o'rtacha 8,94 s.ni qayd etgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin o'rtacha 8,33 s.ni ko'rsatdi.

Tajriba guruhi sinaluvchilari turgan joyidan uzunlikka sakrash mashqini bajarishda o'rtacha 218,4 sm. natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko'rsatkich 275,52 sm. tashkil etdi. Nazorat guruhi sportchilari xuddi shu test bo'yicha tadqiqot boshida o'rtacha 217,5 sm. bo'lgan bo'lsa, tadqiqot ohiriga kelib esa 237,76 sm. natija ko'rsatdi.

Turgan joyidan 3 hatlab sakrash tajriba guruhi tadqiqot boshida o'rtacha 695,3 sm.ni qayd etgan bo'lsa, tadqiqotdan oxirida esa o'rtacha 854,95 sm.ni ko'rsatdi. Nazorat guruhi sportchilari esa ushbu sakrash mashqida tadqiqot avvalida 693,7 sm.ni ifoda etgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 739,92 sm.ni tashkil etdi.

Shtanga bilan o'tirib turish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 soniya davomida) test mezoni bo'yicha tajriba guruhi tadqiqot oldi o'rtacha 11,1 marta natijani ko'rsatgan, tadqiqot oxirida 14,19 marta natijani ko'rishimiz mumkin. Nazorat guruhi sportchilari ushbu testni tadqiqot oldi o'rtacha 11,2 marta natijani ko'rsatgan, tadqiqot oxirida 12,06 marta o'rtacha natijaga bajargan.

Yotgan xolda shtanga ko'tarish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 soniya davomida) bo'yicha tajriba guruhi tadqiqot oldi 14,1 marta natijani

ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan oxirida 17,71 natijani qayd etdi. Aynan ushbu testni nazorat guruhi tadqiqot oldi 13,9 natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan oxirida 15,09 martaga yaxshilanganini ko'rishimiz mumkin.

Dast ko'tarish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 sonya davomida) mashqida tajriba guruhi tadqiqot avvalida 12,3 martani qayd etgan bo'lsa, tadqiqotdan so'ng o'rtacha 14,01 marta oshganini ko'rishimiz mumkin. Dast ko'tarish mashqini bajarish bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot oldi o'rtacha 12,1 martani tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot so'nggida esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha 13,02 marta mashqni bajargani tadqiqotimiz davomida aniqlandi.

Shtangani pastdan belgacha tortish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 soniya davomida) mashqi bo'yicha tajriba guruhi sportchilari tadqiqotdan avval 13,67 marta ko'targan bo'lsa tadqiqot oxirida esa 16,91 marta natija qayd etgan, nazorat guruhi tadqiqot boshida 13,7 marta bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida o'rtacha 14,55 martaga ko'targan.

Shtangani yelkadan dast ko'tarish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 sonya davomida) testida tajriba guruhi tadqiqot boshida o'rtacha 20,1 marta, tadqiqot oxirida 24,14 marta bajargan. Nazorat guruhi esa mos ravishda tadqiqot boshida 20,17 marta, tadqiqot oxirida 22,06 marta sakrashga erishgan.

Turgan joyidan nayza uloqtirish (800 g) mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot boshida o'rtacha 37,21 sm.ga uloqtirgan bo'lsa, tadqiqot yakuniga kelib 45,77 sm. natija qayd qilishdi. Ushbu test bo'yicha nazorat guruhi sinaluvchilari tadqiqot boshida o'rtacha 37,69 sm.ga uloqtirgan bo'lsa, yakunda 41,19 sm. natija ko'rsatishdi.

Besh qadamda nayza uloqtirish (800 g) mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot boshida o'rtacha 45,61 sm. natija ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 55,45 sm. natija ko'rsatishganini tadqiqotimiz davomida qayd etildi. Ushbu testimiz bo'yicha nazorat guruhi sinaluvchilari tadqiqot boshida o'rtacha 45,82 sm.ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot so'ngida o'rtacha 49,66 sm. masofaga uloqtirganini tadqiqotimiz davomida aniqladik.

Yuqorida tahlil qilingan natijalardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi sportchilarda jismoniy tayyorgarligining barcha ko'rsatkichlari (min-max ko'rsatkichlar farqi va o'rtacha statistik ko'rsatkichlar) nazorat guruhiga mansub sportchilarnikiga nisbatan sezilarli ravishda o'sganini kuzatishimiz mumkin.

Tajriba guruhiga mansub nayza uloqtiruvchilarning mashg'ulotlari davomida ularning jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini inobatga olib yugurish, sakrash va shtanga bilan qilinadigan mashqlarini bir vaqtning o'zida qo'llash, nayza uloqtiruvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarlik holatiga salbiy ta'sir etmaydigan tarzda belgilab olish, mashqlar orasidagi dam olish oralig'ini to'g'ri taqsimlash va har bir mashg'ulot yakunida organizm ish qobiliyatini kelgusi ishga tayyorlovchi mashqlarni izchil qo'llab borish sportchilarning natijasini ijobiy o'zgarishida muhim omil hisoblanar ekan.

## **XULOSALAR**

Dissertasiya ishi bo'yicha mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va manbaalar tahlili, olib borilgan pedagogik kuzatuvlar, o'tkazilgan tadqiqotlar va pedagogik tajribalar natijalari quyidagi xulosalarni qayd etishga imkon berdi:

1. Mavzu yuzasidan olib borilgan izlanishlarimiz davomida ko'plab ilmiy manbaalar, tayyorgarlik dasturlari va adabiyotlar tahlili natijalari ko'rsatishicha,

sportchilarni tayyorlash, yengil atletikachilarning yillik tayyorgarlik bosqichlarida, xususan, nayza uloqtiruvchilarni tayyorlash masalasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgani e'tiborimizni tortgan bo'lsada, biroq, aynan nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlar dasturida belgilangan yuklamalarga maxsus texnik mashqlar va vositalarning nisbatini o'zgartirish, sport formasiga kirish hamda uni ushlab turish asosida uloqtirish texnikasi takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan uslubiyat mavjud emasligi tadqiqot davomida aniqlandi.

2. Nayza uloqtiruvchilarning ko'p yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini (mikrosikl, mezosikl va makrosikl) rejalashtirishda og'ir atletika mashqlarini ya'ni shtangani maksimalni 60 % bilan 20 soniya davomida me'yorlab yuklamalar hajmini o'zgartirish va rejalashtirish dasturi samarali ekanligi mashg'ulot jarayonlarida aniqlandi;

3. Nayza uloqtiruvchilarning chalishtirma qadamlar ritmini bir me'yorga keltirishda shtanga grifini yelkaga qo'ygan holatda, og'irlikni belga bog'lagan holda va maxsus kichik g'ovlar ustidan yugurish mashqlarini qo'llash natijasida oxirgi kuch berish texnikasi turgan joyidan nayza uloqtirish 10.14 % ga o'tkazilgan tadqiqotlar davomida takomillashti;

4. Nayza uloqtiruvchilar mashg'ulotlarida maxsus texnik harakat tayyorgarligini (oxirgi kuch berish, nayzani chiqarish burchagi) oshirishda "Javelin Bek Imitation-800" trenajoridan foydalanish orqali nayzaning uchib chiqish burchagini optimallashtirish orqali jismoniy tayyorgarlik darajasi ya'ni besh qadamda nayza uloqtirish 11.13 % ga yaxshilandi;

5. Nayza uloqtiruvchilarning individual uloqtirish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks texnik mashqlari modulini qo'llash orqali musobaqalarda sport natijasini ishonchli ekanligi ( $P < 0,01$ ) aniqlandi.

6. Nayza uloqtiruvchilarning jismoniy rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, tadqiqotga jalb etilgan sportchilarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari yetakchi olimlar tomonidan berilgan ma'lumotlarga mos kelsada, ammo jismoniy rivojlanishi bo'yicha bizning sportchilar ayrim jihatlarda bir oz ortda qolayotganligini ko'rishimiz mumkin. Yengil atletikaning ushbu nayza uloqtirish turiga saralashda ham kamchililar mavjudligi aniqlandi. Nayza uloqtirish turiga saralashda baland bo'y, keng yelka, uzun quloqlar, rivojlangan mushaklarga ega bo'lgan shug'ullanuvchilarni saralab olish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, yengil atletikaning boshqa texnik turlariga nisbatan tana tuzilishida ulardan farqlanishi aniqlandi.

7. Nayza uloqtiruvchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlanganlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan dastlabki tadqiqot natijalariga ko'ra, qo'l kuchini yaxshi rivojlanmaganligi, yetarli darajada shakllanmagan sportchilar oldiga qo'yilgan ma'lum bir sport natijani ko'rsatishga imkon bermasligi muqarrar. Buning uchun nayza uloqtiruvchilarni tayyorlash tizimini yangi optimallashtirish rejasini ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim. Qolaversa, nayza uloqtiruvchi sportchilarning snaryadni to'g'ri tutishi, yugurib kelish texnikasini to'g'ri ijro etishi, oxirgi kuch berish texnikasini takomillashtirishda kuch, egiluvchanlik va tezkor-kuch hamda portlovchi kuch sifatlarini puxta rivojlantirish talab etiladi. Shu boisdan, nayza uloqtirish turi boshqa uloqtirish turlariga nisbatan yugurish sur'atining o'ziga xosligi bilan ham farq qilishini nazarda tutgan holda ularda zaruriy texnika elementlarini maromiga yetkazish e'tibor qaratildi.

8. Nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida funksional holatini inobatga olgan holda rejalashtirishning optimallashtirilgan tuzilmasi amaliyotga tatbiq etilib uning samaradorligi yaxshilanishiga erishildi. Natijada tadqiqotga jalb etilgan tajriba guruhi sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tadqiqot avvali va oxiridagi o'rtacha qiymatlari 30 m. masofani tajriba guruhi tadqiqot avvalida o'rtacha 5,29 s. natija ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 4,26 s. natija qayd etdi. 60 m. masofaga yugurishda tajriba guruhi tadqiqot avvalida o'rtacha 8,95 s. natijani qayd etgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 7,48 s.da yugurib o'tgan. Tajriba guruhi sinaluvchilari turgan joyidan uzunlikka sakrash mashqini bajarishda o'rtacha 218,4 sm. natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko'rsatkich 275,52 sm. tashkil etdi. Turgan joyidan 3 hatlab sakrash tajriba guruhi tadqiqot boshida o'rtacha 695,3 sm.ni qayd etgan bo'lsa, tadqiqotdan oxirida esa o'rtacha 854,95 sm.ni ko'rsatdi. Shtanga bilan o'tirib turish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 sonya davomida) test mezoni bo'yicha tajriba guruhi tadqiqot oldi o'rtacha 11,1 marta natijani ko'rsatgan, tadqiqot oxiridada 14,19 marta natijani ko'rishimiz mumkin. Yotgan xolda shtanga ko'tarish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 soniya davomida) bo'yicha tajriba guruhi tadqiqot oldi 14,1 marta natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan oxirida 17,71 natijani qayd etdi. Dast ko'tarish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 sonya davomida) mashqida tajriba guruhi tadqiqot avvalida 12,3 martani qayd etgan bo'lsa, tadqiqotdan so'ng o'rtacha 14,01 marta oshganini ko'rishimiz mumkin. Shtangani pastdan belgacha tortish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 soniya davomida) mashqi bo'yicha tajriba guruhi sportchilari tadqiqotdan avval 13,67 marta ko'targan bo'lsa tadqiqot oxirida esa 16,91 marta natija qayd etgan. Shtangani yelkadan dast ko'tarish (maksimal ko'taradigan og'irlikning 60 % bilan. 20 sonya davomida) testida tajriba guruhi tadqiqot boshida o'rtacha 20,1 marta, tadqiqot oxirida 24,14 marta bajargan. Turgan joyidan nayza uloqtirish (800 g) mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot boshida o'rtacha 37,21 sm.ga uloqtirgan bo'lsa, tadqiqot yakuniga kelib 45,77 sm. natija qayd qilishdi. Besh qadamda nayza uloqtirish (800 g) mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot boshida o'rtacha 45,61 sm. natija ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 55,45 sm. natija ko'rsatishganini tadqiqotimiz davomida aniqladik. Bu yakunda biz tomonimizdan qo'llanilgan metodikani samarali ekanini kuzatildi.

9. Nayza uloqtiruvchilarni mashg'ulot jarayonini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy-uslubiy adabiyotlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ularda berilgan ma'lumotlar bugungi kunda ma'lum ma'noda eskirganini qayd etish lozim. Jahon arenalarida sport natijalarining kun sayin o'sib borishi nayza uloqtiruvchilarning mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda maqsadli rejalashtirish dasturini ishlab chiqishni taqozo etadi, shuningdek, sportchilar tayyorlash tizimida nayza uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini takomillashtirishga qaratilgan tizimli dastur ishlab chiqish orqali sportchilarni musobaqalarga tayyorlash samaradorligi ta'minlanadi.

## **AMALIY TAVSIYALAR**

1. Nayza uloqtiruvchilarni tayyorlashda shug'ullanuvchilarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu ko'rsatkichlarni nazorat qilish va tarbiyalash orqali mashg'ulotlarda qo'llaniladigan vositalar samarali o'zlashtirib boriladi. Xususan, nayza uloqtiruvchilarning bo'y uzunligiga, ayniqsa, yelkalarining kengligi, quloch uzunligiga e'tibor qaratish lozim.

Chunki, nayza uloqtiruvchilar snaryadni uzoq masofaga uloqtirishi uchun bu ko'rsatkichlar muhim sanaladi.

2. Saralash va sport turlariga qobilyati bor o'quvchilarni sport turlariga yo'naltirish muammosi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning mustaqil yo'nalishiga aylandi, bunda uni hal etishga umumiy metodologik yondashuv asosida tashkil etish lozimligini ko'rsatadi. Birinchidan, sportning muayyan bir turidagi yuqori malakali sportchilar oldiga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirib olish lozim. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalari yordamida alohida sifat va xususiyatlarni rivojlantirish natijasiga ko'ra sport natijasining shartlilik natijasini aniqlash kerak. Uchinchidan, yangi shug'ullanishni boshlagan shug'ullanuvchilarni mazkur tanlab olingan sport turi uchun zarur bo'lgan sifatlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Mashqlar turlarini tasniflashning boshlang'ich xususiyatlari ularning tizimli va ko'p funkcionalligi bilan izohlanishini inobatga olib, tizimli tuzilma musobaqa mashqlarining ularning tarkibiy qismlari bilan o'xshashligini hisobga olish, ko'p funktsiyalilik ma'lum miqdordagi tana tizimlarining (shu jumladan nerv-mushaklarning) ishida ishtirok etishning umumiyligini, shuningdek, ularning ishlash tartibini takrorlanishi bir xil organ va tizimlarining funktsiyalariga nisbatan teng darajada faollashtirishga olib kelishi kabi xususiyatlarni hisobga olgan holda uloqtiruvchilarda maxsus mashqlarni bajarish orqali maxsus tayyorgarligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

4. Dunyoning yetakchi nayza uloqtiruvchilarining mashg'ulotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, nayza uloqtiruvchilarda ilk muvaffaqiyatlar ayollarda 20-22 yosh, erkaklarda esa 24-25 yoshda qo'lga kiritilishi, nayza uloqtiruvchilarning butun faoliyati davomidagi eng yuqori sport natijalari davri ayollarda 25-28 yosh, erkaklarda 27-29 yoshga to'g'ri kelishi tahlillar orqali ma'lum bo'ladi. Mashg'ulotni uzoq muddatli rejalashtirish jarayonida ushbu yosh guruhlarida asosiy o'quv vositalarini tanlashda, o'quv yuklamalarining to'lqinsimon yo'nalishi va mashqlarni bajarish sharoitlarining sportchining individual tayyorgarligidan kelib chiqib yillik rejaga o'zgartirishlar kiritish tavsiya etiladi.

5. Yillik rejada ko'rsatilgan mashqlardan ko'prog'ini bajarish shug'ullanuvchilarning nayza uloqtirish texnikasini egallashlari va kuchni rivojlantirishlari uchun muhimdir. Yengil atletikachilar nayza uloqtirish texnikasini qanchalik past bo'lsa, uni shunchalik ko'p o'rganishlari, epchillikni rivojlantirishlari, mushak va bo'g'inlarni, ayniqsa yelka va tirsak bo'g'inlarini mustahkamlashlari kerak. Yillik tayyorgarlikda sportchi yetarli jismoniy va texnik tayyorgarlik ko'rilmasa hammadan ko'p tirsak bo'g'ini lat yeydigan bo'ladi. Buning oldini olish uchun nayzani oldinga qadam tashlab, nishonga uloqtirib mashq qilish kerak. Bunda qo'llarni yelkadan o'tkazishning to'g'ri bo'lishiga e'tibor berish va uloqtirishni sekin-asta oshirib borish, agar mashg'ulotlar stadionda o'tkazilsa, nayza uloqtirish texnikasini ilgari ko'rsatilgan tartibda o'rgatish kerak. Bino ichida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda oxirgi kuch berish malakalarini vujudga keltirish uchun nayzasiz yordamchi mashg'ulot o'tkazish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

---

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**ХАЙДАРОВ БЕКЗОД ШУКУРАЛИЕВИЧ**

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТРЕНИРОВОЧНОГО  
ПРОЦЕССА МЕТАТЕЛЕЙ КОПЬЯ**

**13.00.04 – Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,  
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистана за № B2020.4.PhD/Ped2035**

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте по адресу [www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz) и информационно-образовательном портале “Ziyonet” по адресу ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Олимов Мухсинбек Сотиволдиевич**  
доктор педагогических наук (DSc), доцент

**Официальные рецензенты:**

**Хужамкелдиев Гафур Султон угли**  
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

**Рузамухамедов Комолиддин Фахриддинович**  
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

**Ведущая организация:**

Защита диссертации состоится “\_\_\_\_\_” “\_\_\_\_\_” 2024 г. в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: [www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz), e-mail: [uzdjtsu@uzdjtsu.uz](mailto:uzdjtsu@uzdjtsu.uz), Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, здание “Б” 2-й этаж, малый зал.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за №\_\_\_\_\_) по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик ул. Спортчилар, дом 19.

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года)

**Р.М. Маткаримов**

Председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней, доктор педагогических  
наук (DSc), профессор

**Ш.Ш. Газиев**

Ученый секретарь научного совета  
по присуждению ученых степеней  
доктор философии по педагогическим  
наукам (PhD), доцент

**Ж.М. Иштаев**

Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор педагогических наук (DSc), доцент

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность проблемы исследования.** В мире престиж легкой атлетики растет в широком масштабе и в современном спорте данный вид спорта занимает свое определенное место, в котором происходят большие изменения, постоянно улучшаются спортивные результаты, интенсивно растет конкуренция и количество занимающихся спортсменов, что в свою очередь требует дальнейшего совершенствования системы подготовки спортсменов. В связи с этим, правильная организация и поэтапное планирование тренировочных нагрузок в многолетнем цикле подготовка позволяет адаптировать квалифицированных метателей копья к соревновательной деятельности. Поэтому, в метании копья требуются решения важных вопросов как правильная организация и проведение тренировочного процесса, повышение общей и специальной физической, технико-тактической подготовленности, рациональное распределение объема используемых тренировочных нагрузок, разработка структуры и содержания тренировочного процесса в предсоревновательном и соревновательном периодах подготовки, а также сохранения спортивной формы.

